

ONA SUTI BILAN BOQISH JARAYONIDA SHIFOKOR MASLAHATLARINING

O'RNINI

Axmadjonova Fotima Akmaljon qizi

Andijon davlat tibbiyot instituti talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada tug'ruqdan keyin onalar farzandlarini oziqlantirishda ona sutining ahamiyati nechog'li katta ekanligini tushuntirish maqsad qilib olingan. Maqolada asosan birinchi farzandini dunyoga keltirgan onalar tanlab olindi. Ularga ona suti afzalliklari yotig'i bilan tushuntirildi. Ko'krak suti bilan emizib bo'qishni himoya qilish va qo'llab quvvatlash zarurligi onalar bilan ish olib boruvchi tibbiy hodimlarning maslahatlari foydali ekanligi ko'rsatib o'tildi.

Kalit so'zlar: Ona suti, g'amho'rlik, mastit, sun'iy ovqatlantirish.

Annotation

This article aims to explain the importance of breast milk in the nutrition of mothers after childbirth. The article mainly selected mothers who gave birth to their first child. The benefits of breastfeeding were explained to them. The need to protect and support breastfeeding It has been shown that the advice of health professionals working with mothers is helpful.

Keywords: breast milk, care, mastitis, artificial feeding

Dolzarbligi:

Jamiyatda ona suti bilan boqishga nisbatan to'g'ri munosabatni shakllantirish jarayonini doimo olib borish va bolalarga ona sutinining ahamiyatini doimo targ'ib qilish.

Necha asrlardan beri yangi tug'ilgan chaqaloqlarni ko'krak suti bilan boqish barcha xalqlar orasida keng tarqalgan bo'lib, bu go'daklarning omon qolishi va sog'lig'ini ta'minlagan. Biroq, xx-asrda sun'iy aralashmalar ishlab chiqarish texnologiyalarining yuqori darajada rivojlanishi, ularning keng reklamasi va emizishning ona-bola uchun foydalari haqidagi ma'lumotlarni onaga yetkazish, ayniqsa homilador ayolni laktatsiya jarayoniga va uning tug'ruqdan keyingi samarali emizishi uchun organizmni tayyorlash zarurati tug'ildi. Ammo, pediatrlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ona sutini sun'iy sutlarga almashtirish juda ko'p asoratlarga olib kelishiga qaramasdan osongina va tez-tez sodir bo'lmoqda. Asoratlarning eng havlisi onalardagi ko'krak saratoni va chaqaloqlardagi erta o'lim xavfi shular jumlasidandir. Bir bolaning kamida 3 oy davomida ona suti bilan oziqlantirish ko'krak saratoni va tuxumdon epithelial saratoni xavfini mos ravishda 50% va 25% ga kamaytiradi. YUNISEFning ta'kidlashicha sayyoramizda tug'ilayotgan har ikki nafar bolaning biri dunyoga kelishining

dastlabki daqiqasidanoq ona sutidan mahrum bo'layotgani achinarli holat sifatida ko'rsatib o'tilmoqda. Bunga sabab ko'krak suti bilan boqishdagi qiyinchiliklarni bartaraf qilishda onaning oila a'zolari va tibbiy hodimlar tomonidan qo'llab quvvatlashning sezilarli darajada kamayganini misol keltirish mumkin. Ko'pincha savol tug'iladi: "Emizish - bu tabiiy jarayon! Nima uchun bu bilan ayolga yordam berish kerak?" Albatta, ba'zi onalar chaqaloqlarini hech qanday qiyinchiliksiz ovqatlantirishadi. Ammo ko'plab ayollar, asosan birinchi marta ona bo'lganlar, yosh va ma'lumoti o'rta bo'lgan ayollar yordamga muhtoj bo'ladi. 1989 yilda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar jamg'armasi (YUNISEF) ko'krak suti bilan boqishni himoya qilish, rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashda onalarga g'amxo'rlik qilish xizmatlarining ahamiyati haqida qo'shma bayonot berdi. Ushbu bayonotda laktatsiya masalalari bo'yicha eng dolzarb ilmiy bilimlar va amaliy tajribalar, homiladorlikdan oldin, homiladorlik paytida va tug'ruqdan keyin onalarni parvarish qilish bo'yicha aniq, umume'tirof etilgan tavsiyalar jamlangan. Ma'lumotlar tibbiyot xodimlari, pediatrlar, akusherlar, hamshiralari uchun mo'ljallangan.

JSST/YUNISEF faoliyati bir necha yo'nalishda amalga oshiriladi:

1. Jamiyatda ona suti bilan boqishga nisbatan to'g'ri munosabatni shakllantirish.
2. Ko'krak suti bilan boqishni qo'llab-quvvatlashda tibbiyot muassasalarining rolini oshirish, tibbiyot xodimlarini tayyorlash.
3. Onalar va onalikka tayyorlanayotgan ayollar uchun emizishning foydalari haqida maksimal ma'lumot berish. Ayniqsa JSST tomonida ishlab chiqilgan samarali ona suti emizishning 10 ta muhim prinsipi bunga yaqqol dalildir.

Tadqiqot maqsadi: Onalar va onalikka tayyorlanayotgan ayollar uchun emizishning foydalari haqida maksimal ma'lumot berish jarayonining laktatsiyaga ahamiyatini tekshirish

Ishning borishi: Namangan shahridagi № 1 tug'ruqhona tadqiqot ob'ekti sifatida tanlab olindi. Asosan birinchi marta ona bo'layotgan 20 ta ayol tanlab olindi. Ulardan 9 nafari 22 yosh, 4 nafari 20 yosh, 3 nafari 19 yosh, 3 nafar 24 yosh va 1 nafar 32 yosh. Ayollarning 17 nafariga tabiiy yo'l bilan, 3 nafariga kessarcha kesish yoli bilan tug'ruq olib borilgan. Ayollardan ona suti emizish borasidagi bilimlarini va ma'lumotlarini, ayni vaqtdagi muammolar haqida anonym tarzda so'rovnoma olindi. 3 kun davomida tug'ruqhona hamshiralari tomonidan JSST tomonida ishlab chiqilgan samarali ona suti emizishning 10 ta muhim prinsipi bo'yicha darslar o'tildi va yana so'rovnoma olindi. So'rovnoma natijalari tahlil qilindi.

Ishning tahlili. Yangi tug'ilagan chaqaloqlarda ona suti berishga hech qanday moneligi bo'lmagan asosan birinchi marta ona bo'layotgan 20 ta ayol tanlab olindi. Ulardan 9(45%) nafari 22 yosh, 4(20%) nafari 20 yosh, 3(15%) nafari 19 yosh, 3(15%) nafar 24 yosh va 1(5%)

nafar 32 yosh. Ayollarning 17(85%) nafariga tabiiy yo'l bilan, 3(15%) nafariga kessarcha kesish yoli bilan tug`ruq olib borilgan. Olib borilgan so`rovnoma ko`ra mashg`ulotlardan oldin 13 (65%)nafar ona sutning kamligi haqida, 3(15%) nafar ona bolasining ko`p uhlashidan, 7(35%) nafar ona ko`krak uchidagi og`riqlardan shikoyat qildi va deyarli 18(90%) ta ayol ko`krak suti bilan emizishni qiyin deb hisoblashyapti va ular bundan tashvishda ekanligini aytishdi. Ona suti mohiyatlari haqida 15 (75%)ta ayol habardorligini aytishdi, lekin to`g`ri emizish qoidalarini va qoldiq sutni sog`ish kerakligini 20 (100%) nafar ayol bilmasligi ayon bo`ldi. 6 nafar ayolda oksitotsin refleksi belgilari bor edi, lekin 14 ta ayol har ikki ko`krani emishi va bolaning tez-tez, uzoq vaqt emishini aytishdi. 3 kun mahsus o`qitilgan hamshiralar olib brogan mashg`ulotlardan so`ng, qayta so`rovnoma olindi va ayollarda javoblar ancha farqli chiqdi.

	Savollar	Mashg`ulotdan oldin	Mashg`ulotdan keyin
1	Bolangizni ona suti bilan boqyapsizmi?	100%	100%
4	Ko`krak bilan bo`g`liq muammolar; a.sut kam; b.yo`riqlar bor c.bola emishga qiylanyapti; d.ko`krak uchi kalta; e.bolam ko`p uhlaydi; j;emizish juda qiyin ekan.	13(65%) 7(35%) 18(90%) 3(15%) 18(90%)	15(75%) 5(25%) 7(35%) 2(10%) 7(35%)
6	Ona suti bilan boqilgan bolalarning aqliy faoliyati baland bo`lishidan habardormisiz?	Ha 15ta(75%)	Ha 20(100%)
7	Ona suti bilan boqish ko`krak bezi saratonining oldini olishi haqida habardormisiz?	Ha15(75%)	Ha(0%)
8	Siz ko`krakda qolib ketgan sutni sog`asizmi?	Yoq (0%)	Ha(0%)
10	Bola qachon hohlasa sut emishi mumkinligini bilasizmi?	Yoq 11(55%):Ha 9(45%)	Ha 20(100%)
11	Bolaning to`g`ri emizish qoidalarini bilasizmi?	Yoq 20(100%)	Ha(0%)
12	Bolangiz har ikki ko`krakni ham emadimi?	14(70%)	20(100%)
13	Sizda bola haqida o`ylasangiz sut to`lishganini sezasizmi?	6(30%)	18(90%)
14	Ona suti bilan emizish sizga rohat bag`ishlaydimi?	7(35%)	18(90%)

Xulosa. Yuqoridagi jadvaldan ko`rinib turibdiki, tibbiy hodimlarning olib brogan mashg`ulotlari ona suti bilan samarali emizish jarayoniga juda foydali ta`sir qilgan. Tug`ruqhonada o`tkazilgan so`rovnoma homilador ayollar bilan mahalliy patronaj tizimida

tushuntirish ishlari yahshi olib borilmaganini ko`rsatdi. Tug`ruqhonada ayollar oz muddatda ketishini inobatga olgan holda asosiy mashg`ulotlar oilaviy shifokor va hamshiralar tomonidan olib borilsa maqsadga muvofiq bo`lar edi. Bu mashg`ulotlarning samarasi kelajak avlodga kerakli ekanligi mashg`ulotlar ilmiy va psixologik aspektlarni o`z ichiga olgan holda o`tkazilishini va ma`suliyat bilan yondoshishni taqozo etadi.

Adabiyotlar

1. Kўkrak suhi bilan emizib boqish (tibbiyot oliy ўquv yurtlari uchun ўquv qўllanma). Ўzbekiston Respublikasi Soғliqni saqlash vazirligi Pediatriya ITI, Toshkent, 2003 yil
2. ЖССТ. Эмизикли ва эрта ёшдаги болаларни овқатлантириш бўйича глобал стратегия. Женева, Бутунжаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти, 2002 йил.
3. ЮНИСЕФ, ЖССТ, WABA ва бошқалар. Кўкрak suhi bilan emizib boqishni qimoya qilish, raqbatlantirish va qўllab-quvvatlash бўйича Инноченти Декларацияси. Нью-Йорк, ЮНИСЕФ, 2005 йил
4. ЖССТ, ЮНИСЕФ. Кўкрak suhi bilan emizib boqishni qimoya qilish, raqbatlantirish va qўllab-quvvatlash: tuғruqqa kўmaklashuvchi xizmatlarning aloqida roli. ЖССТ/ЮНИСЕФнинг кўшма баёоти. Женева, Бутунжаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти, 1989 йил
5. ЭМИЗИКЛИ ВА ЭРТА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИ ОВҚАТЛАНТИРИШ» бўйича ўquv qўllanma. АХМЕДОВА Д.И, ШАМАНСУРОВА Э.А, МАҲКАМОВА Г. Ғ, УБАЙДУЛЛАЕВА С. А.